

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

AVGUST, 2025-YIL





O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMİY-AMALİY
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lism.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиакбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
CBT.....7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHALARIGA TA'SIRI.....12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV.....17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR.....20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI.....24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida)33-37

Норов Шуҳрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои)38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda)42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI.....44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOIY INNOVATSIYALARINI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI64-66

<i>Abduraimova Nigora</i>	
TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i>	
MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i>	
TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i>	
INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munojat</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOIY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i>	
ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i>	
HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i>	
O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i>	
IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i>	
CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuz</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida)	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i>	
"MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i>	
"DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i>	
TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbanova Aziza</i>	
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i>	
ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

Qosimova Malika

LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH
METODLARI 137-140

Ayimbetova Damekhan

ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA
OBRAZLAR TIZIMI 141-145

Yo'lidasheva Mahliyo

"MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK
XUSUSIYATLARI 146-149

YURIDIK FANLARI

G'ofurov Ramzbek

DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI 150-154

Turdibaeva Mukhaddas

JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES 155-160

Gafurova Shoira

ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM
ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI 161-165

Komilov Avazbek

PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI
VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR 166-169

Babajanov Farrux

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS
ETTIRISH 170-175

PEDAGOGIKA FANLARI

Nuriyllaeva Ugulxon

ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И
ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ 176-181

Tursinova Zoxida

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI
BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI 182-191

Babayeva Shahnoza

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI 192-194

Rasulova Baroxon

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV
INNOVATSION BAHOLASH USULLARI 195-199

Zokirjonov Akramjon

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI 200-202

Baratova Yulduz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALТИРИЛГАН
YONDASHUVNING AHAMIYATI 203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza
AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN 211-213

Mamadaliiev Xasanxon

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)
И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-
МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ 214-218

Maxmudbekov Boburmirzo

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA
OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Usmanova Lilia
ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ
ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir
ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI 226-231

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Nematova Dilnoza Azamatovna

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

Email: nematovaldilnoza@gmail.com

Tel: +998911872834

Anotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz hozirgi bosqichida buxgalteriya hisobi va hisobotini isloh qilish, xorijiy investorlarni jalb qilish, moliyaviy hisobotlarning shafofligini oshirish, moliyaviy hisobotning halqaro standartlarga uyg'unlashtirish va asosiy vositalarni eskirishini haqqoniy qiymatini aniq ko'rsatish va uning turlari haqida hamda keng doiradagi iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bog'liq jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, uzoq muddatli aktivlar, moddiy aktivlar, asosiy vositalar, asosiy vositalarni eskirishi, depresiatsiya, depresiatsiya summasi, depresiatsiya darajasi, bozor qiymati va adolatli qiymat.

IMPROVEMENT OF THE DEPRECIATION CALCULATION OF FIXED ASSETS

Nematova Dilnoza Azamatovna

Supporting doctoral student of the Samarkand Institute of Economics and Service

Annotation. This article discusses the current stage of our country's reform of accounting and reporting, attracting foreign investors, increasing the transparency of financial statements, harmonizing financial statements with international standards, and clearly indicating the fair value of fixed asset depreciation and its types, as well as aspects related to the implementation of a wide range of economic changes.

Key words: accounting, financial reporting, national accounting standards, international financial reporting standards, long-term assets, tangible assets, fixed assets, depreciation of fixed assets, depreciation amount, depreciation rate, market value and fair value.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-14>

Iqtisodiyotning zamonaviy globalizatsiyasi milliy hisob tizimni halqaro darajaga yetkazish, moliyaviy hisobotlarning muvofiqligini ta'minlash va o'zaro uyg'unlashtirishni davrning o'zi taqqaqa qilmoqda. Bu esa moliyaviy hisobotdadagi zaruriy ahborotni olishda o'zaro tafovitlarni muvofiqlashtirishda muhimdir. Xalqaro amaliyotda kompaniyalar asosiy vositalarini hisob va hisobotda aks ettirish maxsus "Asosiy vositalar" deb nomlangan 16-sun BHXS (IAS) bilan tartibga solingan. Bizning respublikamizda, korxonalarning asosiy vositalarini hisob va hisobotda aks ettirish tartiblari 5-sun BHMS "Asosiy vositalar" hamda 21-sun BHMS "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasiga uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi" da belgilangan. Ta'kidlash joizki, xozirgi paytda amalda bo'lgan ushbu milliy standartlarimiz korxonalar asosiy vositalarga doir xalqaro amaliyotda qabul qilingan ko'plab tartiblarga to'lig'icha mos emas. 16-sun BHXS (IAS)da belgilangan tartiblarni amaliyotda qo'llash buxgalteriya xizmati xodimlari tomonidan yangicha bilim va ko'nikmalarni xosil qilishni taqazo etmoqda. Aynan shular xozirgi kunda respublikamizda korxonalar asosiy vositalariga doir 16-sun BHXS (IAS) da belgilangan tartiblarni amaliyotga joriy etish yo'llarini chuqur tadqiq etishni dolzarb qilib qo'ymoqda.

Xalqaro standartlarda Mulk (yer, bino), zavod hamda mashina va asbob uskunalarning depresiatsiyasiga doir quyidagi atamalarga tavsif keltirilgan.

Depresiatsiya - bu aktivlarning foydali xizmat davomida depresiatsiyalanadigan qiymatining sistematik kamayishi.

Depresiatsiyalanadigan qiymati – bu qoldiq qiymati chiqarilgan aktivlarning moliyaviy hisobotda aks ettirilgan haqiqiy xarajatlari yoki xaqiqiy xarajatlar o'rniqa boshqa miqdor. Bunda qoldiq qiymat deganda, bizning atamalarimizdag'i likvidatsion qiymat tushuniladi.

Aktivning depresiatsiyalanadigan qiymati uning foydali xizmat muddatiga taqsimlanishi majburiy tartibda amalga oshiriladi. Aktivlarning likvidatsion qiymati va foydali xizmat muddati majburiy tartibda eng bo'limganda moliyaviy yilning oxirida qayta ko'rib chiqilishi kerak. Agar joriy kutilishi oldingi baholanishlardan farq qilsa, ushbu o'zgarishlar hisobda baholashdagi hisob-kitoblar o'zgarishi sifatida qabul qilinadi va 8-son MHXS "Hisob siyosati, hisob-kitob baholashlaridagi o'zgarishlar va xatolar" xalqaro standarti asosida amalga oshiriladi.

Depresiatsiya aktivning adolatli qiymati uning balans qiymatidan oshib ketganda ham davom ettiriladi (tan olinadi), bunda aktivning likvidatsion qiymati uning balans qiymatidan oshib ketmasligi shart. Agar likvidatsion qiymat balans qiymatidan oshib ketsa, depresiatsiya nolga teng bo'ladi. Remont va aktivga texnik xizmat ko'rsatilishi uning depresiatsiyalanishini bekor qilmaydi.

Foydali xizmat muddati:

- Aktivdan foydalanish kutilayotgan davri;
- Aktivdan foydalanish orqali ishlab chiqarish mo'ljallanayotgan buyum miqdori yoki shunga o'xshash birliklar.

Aktivning depresiatsiyalanadigan qiymati uning boshlang'ich qiymatidan likvidatsion qiymatini ayirish orqali topiladi.

Aktivlarning foydali xizmat muddati 16-son MHXSlariga muvofiq uning qaysi depresiatsiya guruhiiga taalluqligiga qarab emas, balki quyidagi omillarga qarab belgilanadi:

- a) ko'zda tutilgan jismoniy eskirishi;
- b) ish smenalarining soni;
- c) ta'mirlash va xizmat ko'rsatish dasturi;
- d) turib qolgan paytida saqlash shart-sharoitlari va xizmat ko'rsatilishi;
- e) ishlab chiqarish jarayoni o'zgarishi yoki takomillashtirilishi natijasida ma'naviy yoki tijorat eskirishi;
- f) aktivdan foydalinish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmatlar)ga bozorda ehtiyoj hajmining o'zgarishi;
- g) aktivdan foydalanishining huquqiy va boshqa analogik chegaralanishlari (masalan, ijara muddati);
- h) korxonaning investitsiyaviy siyosati, eskirgan asbob-uskunalarini almashtirish jadvali va boshqalar;

Yer uchastkalari va bino alohida aktivlar hisoblanadi va hisobda alohida ko'rsatiladi, xolbuki ular bir-biridan ajralmagan holda xarid qilib olingan bo'lsada, yer uchastkalari muddatsiz hisoblanadi va ularga depresiatsiya hisoblanmaydi.

Aktivning depresiatsiyasi u qachon foydalanishga tayyor bo'lgandan keyin boshlanadi,

ya'ni, qachonki aktivning joylashishi va holati tashkilot rahbariyatining ko'zda tutgan maqsadlarida foydalanishni ta'minlaydi. Depresiatsiya hisoblash aktivning tan olinishi tugatilishi bilan tugatiladi.

Foydalanadigan depresiatsiya metodi tashkilotning kelgusidagi iqtisodiy nafning iste'mol qilinishi darajasini aks ettirishi lozim.

Aktivning depresiatsiyalanadigan qiymatini foydali xizmat muddati davomiyligiga sistematik taqsimlash uchun turli usullardan foydalanish mumkin. Quyidagi usullar e'tirof etilgan:

- Бир маромда тақсимлаш методи
- Straight line Method

- Ишлаб чиқарилган миқдор бирлиги методи
- Units-of- Production Method

- Сум - рақам методи
- Sum of the years – Digits Method

- Қолдиқни камайтириш
- Declining-balance depreciation

1-rasm. Depresiatsiyalanadigan qiymatini foydali xizmat muddati davomiyligiga sistematik taqsimlash

Bir maromda hisoblash metodi depresiatsiyaning doimiy summasini aktivning foydali xizmat muddati davomida hisoblanishiga aytildi. Qoldiqni kamaytirish metodi foydali xizmat qilish muddati davomiyligida hisoblanadigan depresiatsiya summasini kamaytirilishiga olib keladi. Ishlab chiqarish miqdori birligi metodi ko'zda tutilgan foydalanish yoki ko'zda tutilgan unumdorlikdan kelib chiqib depresiatsiya summasini hisoblashga asoslanadi. Tashkilot qaysi metod aktivlarda mujassamlashgan iqtisodiy nafning iste'mol qilinishini eng aniq ifodalasa shu metodni tanlaydi. Tanlangan metod kelgusidagi iqtisodiy nafning iste'mol qilinishi darajasida o'zgarish yuz berganga qadar ketma-ket u davrdan bu davrda o'tib qo'llaniladi.

Bir maromda taqsimlash metodini qo'llashda quyidagi ko'rsatkichlar talab etiladi: aktivning boshlang'ich qiymati, aktivning likvidatsion qiymati va foydali xizmat qilish muddati:

Depresiatsiya summasi = (Tannarx – likvidatsion qiymat) / foydali xizmat muddati

Ishlab chiqarilgan miqdor birligi metodlarini (Unis-of- Production Method) depresiatsiya xarajatlari baholangan ishlab chiqarish quvvati birligiga bog'liq bo'ladi.

Depresiatsiya darajasi = (Tannarx – Likvidatsion qiymati / Ishlab chiqarish quvvati, birlikda Depresiatsiya summasi = Depresiatsiya darajasi x Yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot birligi

Ushbu formuladagi ko'rsatkichlarining qiymatini qo'ysak, depresiatsiya darajasi kelib chiqadi.

Yillik depresiatsiya summasini topish uchun har yili ishlab chiqarilgan mahsulot birligini depresiatsiya darajasiga ko'paytirish talab etiladi.

Tezlashtirilgan depresiatsiya aktivning foydali xizmat qilish muddatining dastlabki yillarda depresiatsiya xarajatlari uning qolgan keyingi yillariga nisbatan katta bo'ladi. Unga muvofiq ravishda keyingi yillarda depresiatsiya xarajatlari kichik bo'ladi. Bunga ikkita sabab bor:

1. Aktivning dastlabki foydalanish yillarda ko'proq daromad keltiradi, sababi u boshlang'ich yillarda keyingi yillarga nisbatan samarali natija beradi.

2. Keyingi yillarda ta'mirlash xarajatlari ortadi. Natijada, hisobot davrda aktivdan foydalanish xarajatlari, ya'ni uni ta'mirlash xarajatlari va depresiatsiya xarajatlari bir maromlikni saqlab qoladi.

Tezlashtirilgan depresiatsiyaning ikkita metodi e'tirof etiladi: Sum raqam va qoldiqni kamaytirish metodlari.

Sum - raqam metodida har bir yil uchun depresiatsiya xarajatlari boshlang'ich tannarxdan likvidatsion qiymat chegirilgandan keyingi summani dominator va nomerator raqamlari asosida taqsimlashga asoslanadi.

Dominator quydagicha hisoblanadi: $5+4+3+2+1=15$. Foydali xizmat qilish muddati katta bo'lganda dominatori quydagi formula orqali hisoblash maqsadga muvofiqdir.

$S = n((n+1)/2)$, bunda n – aktivning foydali xizmat qilish muddati.

$S = 5((5+1)/2) = 15$ ga teng

Nomerator har bir yil bo'yicha 5, 4, 3, 2 va 1 ni tashkil etadi. **Depresiatsiya nisbati** birinchi yil uchun $5/15$, ikkinchi yil uchun $4/15$, uchinchi yil uchun $3/15$, to'rtinchi yil uchun $2/15$, beshinchi yil uchun $1/15$, jami $15/15$ ni tashkil etadi.

Qoldiqni kamaytirish metodi bir tekisda taqsimlash usulidagi depresiatsiya darajasiga nisbatan tezlashtirilgan darajani qo'llash orqali amalga oshadi. Depresiatsiya summasi qoldiq qiymatiga nisbatan hisoblanadi likvidatsion qiymat chegirilgandan keyingi summani dominator va nomerator raqamlari asosida taqsimlashga asoslanadi.

Dominator quydagicha hisoblanadi: $5+4+3+2+1=15$. Foydali xizmat qilish muddati katta bo'lganda dominatori quydagi formula orqali hisoblash maqsadga muvofiqdir.

$S = n((n+1)/2)$, bunda n – aktivning foydali xizmat qilish muddati.

$S = 5((5+1)/2) = 15$ ga teng

Nomerator har bir yil bo'yicha 5, 4, 3, 2 va 1 ni tashkil etadi. **Depresiatsiya nisbati** birinchi yil uchun $5/15$, ikkinchi yil uchun $4/15$, uchinchi yil uchun $3/15$, to'rtinchi yil uchun $2/15$, beshinchi yil uchun $1/15$, jami $15/15$ ni tashkil etadi.

Qoldiqni kamaytirish metodi bir tekisda taqsimlash usulidagi depresiatsiya darajasiga nisbatan tezlashtirilgan darajani qo'llash orqali amalga oshadi. Depresiatsiya summasi qoldiq qiymatiga nisbatan hisoblanadi. Depresiatsiya agar aktiv oyning 15 sanasigacha kelib tushgan bo'lsa, shu oydan va agarda 15 sanadan keyin kelib tushsa keyingi

oydan hisoblanishini ta'kidlashgan. Bu tartibni "yarim- oylik konvensiya" deb atashadi. Bizning mamlakatimizdagi buxgalteriya hisobi sohasidagi tajribada "yarim oylik konvensiya" qo'llanilib kelingan. Bu usul o'zining afzalliklarga va ayrim qulaysizliklarga ega. Bu konvensianing afzallik tarafı shundan iboratki, unda yillik depresiatsiya summasi aktivlarning yil davomida harakatini o'zida to'laroq ifodalaydi va uning summasi nisbatan aniq hisoblanadi. Qulaysizlik tarafı shundan iboratki, bu usulda hisob-kitoblar hajmi ko'payadi va tezlashtirilgan depresiatsiya usullarini qo'llash ancha qiyinlashadi.

Bizning amaliyotimizda "belgilangan depresiatsiya" tartibi o'zgargan taqdirda depresiatsiya siyosatiga kiritiladigan o'zgartirishlar uslubiy jihatlarini ko'rib o'taylik. Belgilangan depresiatsiya – aktivlarning foydali xizmat qilish muddati va likvidatsion qiymatini o'z ichiga oladi. Standart talablariga muvofiq hisob usullarini o'zgartirish biznes daromadlarini yaxshiroq baholab-o'lchashga olib kelgan va hisobot davri ko'rsatkichlarining taqqoslanishligi buzilmagan hollarda ruxsat etiladi. Ushbu tajribaning qo'llanilishi R.Libbi, P.A.Libbi va D.G.Short tomonidan atroficha yoritilgan. Depresiatsiyalar hisobi amaliyotida soliq qonunchiligi asosida hisoblangan depresiatsiya (amortizatsiya) summalari muhim o'rinn tutadi. Mamlakatimizda Soliq Kodeksida soliq maqsadlari uchun amortizatsiya qilinadigan barcha aktivlar bo'yicha amortizatsiyani hisoblash amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari qo'llanilgan holda to'g'ri chiziqli usul orqali amalga oshiriladi (1-jadval)

1-jadval

Amortizatsiya qilinadigan barcha aktivlarning amortizatsiya hisoblashning normalari¹

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Amortizatsiya guruhlarining (kichik guruhlarining) nomi	Amortizasiyaning normasi, foizlarda
I		Binolar va inshootlar	
	1	Binolar	5
	2	Inshootlar	10
II		Quvurlar, elektr uzatish va telekommunikatsiyalar liniyalari	15
III		Mashinalar va uskunalar (transport uskunalaridan tashqari)	20
IV		Transport uskunalari	
	1	Havo va kosmik uchish apparatlari va ular bilan bog'liq uskunalar, kemalar va qayiqlar, lokomotivlar va harakatdagi tarkib	10

¹ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. 30.12.2019.

<https://lex.uz/docs/4674902#5807941.306-модда>.

		(temir yo'l tarkibi)	
	2	Avtotransport vositalari, avtomobil kuzovlari (korpuslari), tirkamalar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalari	20
V		Kompyuterlar va periferiya uskunalari	40
VI		Boshqa guruhlarga kiritilmagan amortizatsiya qilinadigan aktivlar	15

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu qoidalar daromad (foyda) solig'i hisob-kitoblarini amalga oshirilayotganda qo'llaniladi. Natijada, hisob siyosatidagi belgilangan depresiatsiya metodlari va soliq qonunchiligi asosida hisoblangan depresiatsiya summalarini o'rtasidagi farq aniqlanadi. Agar soliq qonunchiligi asosida hisoblangan amortizatsiya summasi hisob siyosatidagi metodlar asosida hisoblangan summalaridan katta bo'lsa, soliqqa tortiladigan baza ushbu summaga kamaytiriladi. Aks holda, ya'ni kichik bo'ladigan bo'lsa, ushbu farq soliq bazasiga qo'shiladi.

Ko'pchilik hollarda amaliyotda buxgalterlar amortizatsiya hisobida soliq qonunchiligidagi amortizatsiya me'yorlaridan foydalanish bilan cheklanishadi. Moliyaviy buxgalteriya hisobi umume'tirof etilgan standartlar va uning korxonalarda uyg'unlashgan hujjati bo'lgan hisob siyosati asosida yuritilishini kerak.

Depresiatsiyaga oid hisob siyosatini ishlab chiqishda aktivlarning foydali xizmat qilish muddati va likvidatsion qiymatini belgilash muhim jarayon hisoblanadi. Bu ishga faqat buxgalterlar emas, balki muhandislar, boshqa bo'linmalar menejerlari ishtirok etishi lozim. Depresiatsiya summalarini to'g'ri hisoblash asosiy vositalarning holatini baholash va moliyaviy natijalarni haqqoniy baholash imkonini belgilaydi.

Shu bois, hisob siyosatida asosiy vositalarga doir uslubiy masalalarni mukammal shakllantirish hisob tizimining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

- Молиявий хисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чоратадбирлар тўғрисида". Ўзбекистон Республикаси Республикамизда Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон Қарори.
- БХХС (IAS) 16 "Асосий воситалар".
- МХХС (IFRS) 5 "Сотиш учун мўлжалланган оборотдан ташқари активлар ва тутатилган фаолият".
- Ташназаров С.Н. Молиявий хисоботнинг халқаро стандартлари: Олий Ўқув юртлари магистратура мутахассисликлари учун дарслик. - Тошкент: "ИҚТИСОД-МОЛИЯ". 2019. - 584-6.
- Уразов К.Б., Пўлатов Э.М. Бухгалтерия хисоби. Дарслик. -Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyি», 2021, -560 бет.
- Нематова Дилноза Азаматовна, Корректировка Счета Основных Средств На Международные Финансовые Стандарты, CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, Volume: 04 Issue: 09 | 2023 ISSN: 2660-454X <https://cajitmfcentralasianstudies.org>

9. Nematova Dilnoza Azamatovna, ASOSIY VOSITALARGA OID BHXS VA MHXSLAR
10. MAQSADI VA AMALIYOTDA QO'LLANILISHI YASHIL IQTISODIYOT VA
11. TARAQQIYOT, Issue: 2024-yil iyul, № 7-son. ISSN: 2992-8982.
12. Nematova Dilnoza Azamatovna, IMPROVEMENT OF REPORTING BASED ON THE RESULTS OF REVALUATION OF KEY INSTRUMENTS IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS, American Journal of Advanced Scientific Research (AJASR) ISSN: 2195-1381 Vol. 1 Issue 8, December 2024, Pages: 630-634
13. <http://www.gaap.ru> – The information center of theory and practice of financial accounting
14. <http://www.iasc.org.uk>- International Accounting Standards Committe

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.